



*2024- yil yanvar-may oylari  
uchun dastlabki ma'lumot*

# **QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI**

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi:  
Tel. (75) 221-44-28*



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-may oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 505189,5 ming AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 265 176,1 ming AQSH dollariga yoki 2,1 martaga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar-may oylarida ming AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: 505189,5 **+2,1 m.**  
(2023- y.: 240013,4)




### Saldo

2024- y.: -77393,1  
(2023- y.: 78850,6)




### Eksport

2024- y.: 213898,2 **+34,2 %**  
(2023- y.: 159432,0)



### Import

2024- y.: 291291,3 **+3,6 m.**  
(2023- y.: 80581,4)













**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 213898,2 ming AQSH dollariga (34,2 % ga ko‘paydi) va import hajmi 291291,3 ming AQSH dollariga (3,6 martaga ko‘paydi). Hisobot davrida -77393,1 ming AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-may oylarida ming AQSH dollari)

XXR	Turkiya	Rossiya Federatsiyasi	BAA	Qozog‘iston
TSA – 209494,7	TSA – 103269,6	TSA – 100841,9	TSA – 44612,7	TSA – 32804,3
Eksport: 35193,3 Import: 174301,4	Eksport: 86212,2 Import: 17057,4	Eksport: 72398,1 Import: 28443,8	Eksport: 42404,6 Import: 2208,0	Eksport: 15628,5 Import: 17175,8
 41,5 %	 20,4 %	 20,0 %	 8,8 %	 6,5 %
Pokiston	AQSH	Tojikiston	Polsha	Italiya
TSA – 27420,2	TSA – 26504,2	TSA – 17789,8	TSA – 17525,4	TSA – 15237,9
Eksport: 25692,7 Import: 1727,5	Eksport: 23486,9 Import: 3017,3	Eksport: 16958,6 Import: 831,2	Eksport: 57,8 Import: 14687,6	Eksport: 12620,7 Import: 2617,2
 5,4 %	 5,2 %	 3,5 %	 3,5 %	 3,0 %











Qashqadaryo viloyati jahonning 68 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXR (41,5 %), Turkiya (20,4 %), Rossiya Federatsiyasi (20,0%), BAA (8,8 %), Qozog‘iston (6,5 %), Pokiston (5,4 %), AQSH (5,2 %), Tojikiston va Polshada (3,5%) qayd etilgan.



## QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-may oylarida ming AQSH dollari)

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	<b>XXR</b>	<b>52210,5</b>	<b>30717,3</b>	<b>139748,7</b>
	<i>Eksport</i>	12187,2	5989,5	11429,2
	<i>Import</i>	40023,3	24727,8	173184,3
	<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>30466,2</b>	<b>36071,5</b>	<b>40459,4</b>
	<i>Eksport</i>	18552,1	27463,4	30483,8
	<i>Import</i>	11914,1	8608,1	9975,6
	<b>Turkiya</b>	<b>65019,5</b>	<b>54166,3</b>	<b>45489,7</b>
	<i>Eksport</i>	47747,8	45105,9	39130,3
	<i>Import</i>	17271,7	9060,4	6359,4
	<b>Niderlandiya</b>	<b>1070,4</b>	<b>772,1</b>	<b>29734,5</b>
	<i>Eksport</i>	4,8	0,0	60,0
	<i>Import</i>	1065,6	772,1	29674,5
	<b>Ekvador</b>	<b>205,8</b>	<b>141,6</b>	<b>16145,5</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	205,8	141,6	16145,5
	<b>AQSH</b>	<b>495,9</b>	<b>1070,8</b>	<b>41485,3</b>
	<i>Eksport</i>	4,1	12,9	39954,3
	<i>Import</i>	491,8	1057,9	1531,0
	<b>Pokiston</b>	<b>4278,4</b>	<b>11463,6</b>	<b>18876,9</b>
	<i>Eksport</i>	4093,6	10497,4	12038,3
	<i>Import</i>	184,8	966,2	6838,6
	<b>Germaniya</b>	<b>8374,1</b>	<b>3805,1</b>	<b>16651,0</b>
	<i>Eksport</i>	1019,7	182,6	175,3
	<i>Import</i>	7354,4	3622,5	16475,7
	<b>BAA</b>	<b>693,0</b>	<b>21207,1</b>	<b>18114,0</b>
	<i>Eksport</i>	611,7	21177,4	17279,7
	<i>Import</i>	81,3	29,7	834,3
	<b>Misr</b>	<b>695,5</b>	<b>4908,8</b>	<b>9254,4</b>
	<i>Eksport</i>	695,5	4892,9	9254,4
	<i>Import</i>	0,0	15,9	0,0


	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>11268,4</b>	<b>4072,2</b>	<b>6720,4</b>
	<i>Eksport</i>	8259,8	3019,0	5639,5
	<i>Import</i>	3008,6	1053,2	1080,9
	<b>Polsha</b>	<b>5831,4</b>	<b>8917,3</b>	<b>5766,2</b>
	<i>Eksport</i>	4684,9	8294,5	6305,8
	<i>Import</i>	1146,5	622,8	134,0
	<b>Tojikiston</b>	<b>2208,6</b>	<b>2150,1</b>	<b>4566,8</b>
	<i>Eksport</i>	364,3	1854,3	4298,1
	<i>Import</i>	1844,3	295,8	268,7
	<b>Qozog'iston</b>	<b>7794,9</b>	<b>15934,7</b>	<b>6439,8</b>
	<i>Eksport</i>	2861,4	6939,2	4880,6
	<i>Import</i>	7582,2	8995,5	1476,4
	<b>Hindiston</b>	<b>5318,6</b>	<b>4892,7</b>	<b>4933,6</b>
	<i>Eksport</i>	2998,4	4017,3	1001,5
	<i>Import</i>	12320,2	875,4	3932,1
	<b>Yaponiya</b>	<b>3547,7</b>	<b>1324,2</b>	<b>8729,5</b>
	<i>Eksport</i>	161,5	26,6	0,0
	<i>Import</i>	3386,2	1321,6	8729,5
	<b>Litva</b>	<b>217,3</b>	<b>8,0</b>	<b>2191,1</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	270,1
	<i>Import</i>	217,3	8,0	1921,0
	<b>Vetnam</b>	<b>1327,7</b>	<b>5199,5</b>	<b>2761,8</b>
	<i>Eksport</i>	1326,6	5137,2	2692,0
	<i>Import</i>	0,1	62,3	69,8
	<b>Kanada</b>	<b>491,0</b>	<b>725,0</b>	<b>1895,8</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	284,3
	<i>Import</i>	491,0	725,0	1611,5
	<b>Bangladesh</b>	<b>0,0</b>	<b>551,5</b>	<b>2141,3</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	551,5	2141,3
	<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024-yil yanvar-may oylari ming AQSH doll.)\*

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollari




**Eng quyi hajm,**  
ming AQSH dollari

ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushini Qarshi shahri 34,0 % ulush bilan 171993,0 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushini esa Muboraki tumani 0,3 % ulush bilan 1337,4 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 13,2 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,9 % ga ko'paygan.



Qashqadaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024- yilning yanvar-may oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,5 martaga ko'paygan va jami TSAdagi ulushi 86,8 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra, 66504,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 50099,5 ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 16405,4 ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



### QASHQADARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-may, ulushi, % da)

Rossiya – 60,8



Qozog'iston – 18,0



Tojikiston – 11,4



Ozarbayjon – 2,0



Ukraina – 2,0



Moldova  
Respublikasi – 2,4



Qirg'iz  
Respublikasi – 0,5



Turkmaniston – 0,2



Belarus  
Respublikasi – 2,5



Armaniston – 0,1




Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (60,8 %), Qozog'iston (18,0 %) hamda Tojikiston (11,4 %) davlatlari bilan qayd etildi.



## QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-may oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



Qashqadaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 147879,1 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 94565,2 ming AQSH dollari, import hajmi esa 53313,9 ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-may oylari)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 145,0 ga yetdi va ular tomonidan 213898,2 ming AQSH dollari qiymatini hamda (2023- yilning mos davriga nisbatan 34,2 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-may oylari ulushi % da)



Qashqadaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-may oylari yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>159432,0</b>	<b>213898,2</b>	<b>127,4</b>	<b>134,2</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	27423,2	24141,2	190,5	88,0	17,2	11,3
Ichimliklar va tamaki	307,3	76,1	114,1	24,8	0,2	0,04
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xom ashyo materiallari	7,7	0,7	1,2	9,1	0,1	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	21653,1	65073,5	3,0 m.	3,0 m.	13,6	30,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	441,4	488,3	22,0	110,6	0,3	0,2
Sanoat tovarlari	103842,3	121515,5	105,9	117,0	65,1	56,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	3648,5	1131,0	3,0 m.	31,0	2,3	0,5
Turli xil tayyor buyumlar	272,7	-	-	-	-	-
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	1835,6	1471,9	114,1	80,2	1,2	0,7

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,3 % ni tashkil etib, ulardan sanoat tovarlari (56,8 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (30,4 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI**  
(2024- yil yanvar-may oylari)



XSST bo'limi nomi

Ming  
AQSH  
dollari

2023- yilning  
mos davriga  
nisbatan,  
% da

**Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar**

24141,2

87,1

Sabzavotlar va mevalar

19846,7

95,0

**Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari**

7276,9

2,5 m.

To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari

-

-

O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo

-

-

Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari

994,9

-

Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar

262,4

52,2

**Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar**

67073,5

3,0 m.

Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar

67073,5

3,0 m.


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>112708,8</b>	<b>117,5</b>
Yigirilgan to'qimachilik iplari, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	112682,7	117,7
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	3,6	67,9
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	22,5	12,2
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	-	-
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>	<b>1119,9</b>	<b>32,8</b>
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	1119,6	33,2
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	0,3	100,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>7370,2</b>	<b>139,4</b>
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	7350,6	139,2
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	19,6	2,7 m.
<b>Xizmatlar</b>	<b>1471,9</b>	<b>80,2</b>

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-may oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,8 % ga ko'paygan.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may oylari ming AQSH dollari, ulushi, % da)



■ MDH davlatlari ■ Boshqa davlatlar

2024- yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, XXR, Pokiston, AQSH, BAA va Misr kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 71,7 % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-may oylari % da)






## QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-may oylari yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Turkiya	45105,9	39130,3	94,5	86,8	1	2
Rossiya Federatsiyasi	27463,4	30483,8	148,0	111,0	2	3
AQSh	12,9	39954,3	3,1 m.	3097,2 m.	37	1
XXR	5989,5	11429,2	49,1	190,8	7	6
Pokiston	10497,4	12038,3	2,6 m.	114,7	4	5
BAA	21177,4	17279,7	34,6 m.	81,6	3	4
Misr	4892,9	9254,4	7,0 m.	189,1	9	7
Eron Islom Respublikasi	3019,0	5639,5	36,6	186,8	12	11
Polsha	8294,5	6305,8	177,0	76,0	5	9
Tojikiston	1854,3	5697,6	5,0 m.	3,1 m.	14	10
Vetnam	5137,2	2692,0	3,9 m.	52,4	8	14
Qozog'iston	6939,2	9014,1	2,4 m.	129,9	6	8
Bangladesh	551,5	2141,3	-	3,9 m.	23	17
Afg'oniston	1861,9	3848,1	21,6	2,1 m.	13	13
Portugaliya	227,6	4267,2	-	16,8 m.	29	12
Marokash	1355,3	2452,5	-	157,2	15	15
Ozərbayjon	855,3	1023,9	75,9	119,7	18	20
Moldova Respublikasi	1095,8	1225,9	76,0	111,9	16	19
Hindiston	4017,3	1001,5	134,0	24,9	10	22
Ruminiya	0,0	2297,6	-	-	-	16



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-may oylari ming AQSH doll.)\*



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Nishon tumani 27,5 % bilan 45658,0 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Dehqonobod tumani 0,6 % bilan 940,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-may oylarida 47,6 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 77,6% ga ko'paydi.









Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (38,3 %), Pokiston (24,8%), Rossiya (20,3 %) hamda Afg'oniston (13,2 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 19,8 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 94,7 % ga kamaydi va jami eksportdagi ulushi 9,2 % ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-may oylari o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p><b>Piyoz</b></p> <p>5,4 mln. AQSH dollari</p> <p>22,5 ming tonna</p> <p> 117,4% ↑</p>	<p><b>Karam</b></p> <p>3,6 mln. AQSH dollari</p> <p>11,3 ming tonna</p> <p> 6,0 m. ↑</p>	<p><b>Loviya</b></p> <p>4,1 mln. AQSH dollari</p> <p>1,1 ming tonna</p> <p> 37,9% ↓</p>	<p><b>Uzum</b></p> <p>0,6 mln. AQSH dollari</p> <p>0,3 ming tonna</p> <p> 27,3% ↓</p>
<p><b>Pomidor</b></p> <p>0,4 mln. AQSH dollari</p> <p>0,2 ming tonna</p> <p> 22,2% ↓</p>	<p><b>Sabzi</b></p> <p>2,3 mln. AQSH dollari</p> <p>7,3 ming tonna</p> <p> 3,5 m. ↑</p>	<p><b>Bodring</b></p> <p>0,1 mln. AQSH dollari</p> <p>0,1 ming tonna</p> <p> 50,0% ↓</p>	<p><b>Sitrus mevalar</b></p> <p>0,1 mln. AQSH dollari</p> <p>0,03 ming tonna</p> <p> 15,0% ↓</p>



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-may oylari)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	11,6	4919,2	24,8
 Rossiya	5,4	4004,5	20,2
 Afg'oniston	2,3	2618,0	13,2
 Qozog'iston	26,0	7592,5	38,3
 Iroq	0,8	328,3	1,7
 BAA	0,2	48,9	0,2
 Turkiya	0,02	15,4	0,1
 Boshqa davlatlar	30,6	319,9	1,5

\* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-may oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'iston davlatiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 38,3 % ni), bu ko'rsatkich Turkiya eksport hajmidan 4,9 martaga ko'p.



## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.






Xususan, 2024- yil yanvar-may oylari yakuni bo‘yicha 10417,2 ming AQSH dollari to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 4,9 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 17,5 % ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak (70,6 %), ipak,paxta,jundan tayyorlangan matolar (27,3 %) asosiy ulushni egallagan.



## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI


(2024- yil yanvar-may oylari ming AQSH dollari)

	2023-y.	2024-y.
 Kiyim-kechak	5279,6	7350,6
 Sintetik, jun tolalar	-	-
 Ipak, paxta, jundan tayyorlangan matolar	3555,2	2840,4
 Sintetik ip kalava	34,4	226,2
 Paypoq mahsulotlari	-	-

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



### XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-may oylari ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 1471,9 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,7 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 19,8 % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (70,9 %), boshqa xizmatlar (28,6 %) va safarlar (turizm) (0,5 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI

2024- yilning yanvar-may oylarida import hajmi 291291,3 ming AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,6 martaga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (70,3 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (15,0%) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9,9 %) hamda hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-may oylari ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 211103,1 ming AQSH dollariga ko'paydi va 291131,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-may oylari yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>80581,5</b>	<b>291 291,3</b>	<b>69,5</b>	<b>361,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsu lotlari va tirik hayvonlar	6831,9	28 828,7	112,0	422,0	8,5	9,9
Ichimliklar va tamaki	20,4	-	-	-	-	-
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo materiallari	3628,1	5 430,5	77,0	149,7	4,5	1,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash Materiallar	3558,7	2 553,4	106,0	71,8	4,4	0,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash Mahsulotlar	13125,6	43 557,3	92,4	331,8	16,3	15,0
Sanoat tovarlari	7215,8	5 925,3	63,0	82,1	9,0	2,0
Mashinalar va transport asbob uskunalari	45556,8	204 700,1	60,0	449,3	56,5	70,3
Turli xil tayyor buyumlar	91,2	136,3		149,5	0,1	
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	553	159,7	77,9 m.	28,9	0,7	0,1



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-may oylari)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>30704,9</b>	<b>4,2 m.</b>
Sabzavotlar va mevalar	26640,9	18,1 m.
Tirik hayvonlar	2385,2	95,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1326,7	43,2
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	312,9	133,2
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	29,7	4,2 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	9,5	-
<b>Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo materiallari</b>	<b>1084,6</b>	<b>26,6</b>
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	345,0	17,2
Yog'och-taxtalar	578,3	213,4
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	50,8	2,9
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	110,5	3,1 m.
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>3558,7</b>	<b>2553,4</b>
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1773,6	2483,1
Tabiiy yoki sun'iy gaz	1785,1	70,3
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>42476,9</b>	<b>335,5</b>
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	33246,1	1451,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	4791,6	146,2
Organik kimyo moddalari	1544,6	46,1
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	576,8	32,7
Noorganik kimyo moddalari	1718,5	239,3
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	0,4	3,8
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	493	41,3
Bo'yovchi va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	105,9	189,4


<b>XSST bo'limi nomi</b>	<b>Ming AQSH dollari</b>	<b>2023- yilning mos davriga nisbatan, % da</b>
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>9399,2</b>	<b>109,6</b>
Cho'yan va po'lat	5412,2	126,1
Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	0,1	-
Boshqa joyda tasniflanmagan rezina buyumlar	893,3	159,4
Rangli metallar	1039,6	229,3
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	0,8	-
Ruda bulmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1589,5	56,0
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	427	267,4
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	36,7	13,5
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>	<b>197788,8</b>	<b>533,5</b>
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	-	-
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	106710,2	1836,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	463	209,9
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	609,6	293,1
Kanslyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	3952,7	12628,4
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	494	722,2
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	50,9	-
Metallarni qayta ishlash mashinalari	-	-
Boshqa transport uskunolari	85508,4	278,2
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>6824,3</b>	<b>171,5</b>
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	6182,5	206,0m.
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	-	-
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	136,3	149,5
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebellar	505,5	107,4




Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2024- yil yanvar-may oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 5,6 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 25,2 % ga kamaydi.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-may oylari ming AQSH dollari, ulushi % da)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

 2024- yil yanvar-may oylarida Qashqadaryo viloyati 302 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Qozog'iston, Qirg'iziston, Germaniya, Latviya, XXR, Rossiya Federatsiyasi va Yaponiya) jami importning 81,3 % ni tashkil etdi.



**VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-may oylari % da)**






## QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yillar kesimida yanvar-may oylari holati)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	24727,8	173184,3	14,3	7,0 m.	1	1
Niderlandiya	772,1	29674,5	72,5	38,4 m.	17	2
Ekvador	141,6	16145,5	68,8	114,0 m.	27	4
Germaniya	3622,5	16475,7	49,2	4,5m.	6	3
Rossiya Federatsiyasi	8608,1	9975,6	72,3	115,9	4	5
Pokiston	966,2	6838,6	5,2 m.	7,1 m.	15	7
Turkiya	9060,4	6359,4	52,4	70,2	2	8
Yaponiya	1321,6	8729,5	39,0	6,6 m.	10	6
Litva	2465,5	1921,0	11,3 m.	77,9	7	12
Hindiston	875,4	3932,1	37,7	4,5 m.	16	9
Kanada	725,0	1611,5	147,7	2,2 m.	18	13
Qozog'iston	8995,5	2386,5	118,6	26,5	3	11
Eron Islom Respublikasi	1053,2	1080,9	35,0	102,6	14	16
Fransiya	549,0	732,8	138,8	133,5	20	19
Qirg'iz Respublikasi	2267,7	2856,1	83,7	125,9	8	10
AQSh	1057,9	1531,0	2,1 m.	144,7	13	14
BAA	29,7	834,3	36,5	28,1 m.	38	18
Qo'shma Qirollik	150,6	284,9	6,2 m.	189,0	26	25
Finlandiya	1,2	243,6	2,4 m.	203 m.	52,0	27
Italiya	1305,9	995,1	88,3	76,2	11	17



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-may oylari ming AQSH dollari)




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 55,7 % bilan 162280,8 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Mirishkor tumani 0,1 % bilan 154,1 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-may oylari ming AQSH dollarida)




2024- yilning yanvar-may oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 159,7 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (96,9 %) bo'ldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-may oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 5925,3 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 82,1% ga kamaydi hamda, importning umumiy hajmidagi ulushi 9,0 % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-may oylari ulushi, % da)

1846,5 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 31,2 %

724,0 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 12,2 %

1485,0 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 25,1%



**Qirg'iziston**



**Rossiya  
Federatsiyasi**



**XXR**

438,1 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 7,4 %

219,0 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 3,7 %



**Qozog'iston**



**Eron**



2024- yil yanvar-may oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan -1290,5 ming AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Qirg'iziston- 1846,5 ming AQSH dollari (31,2 %) XXR- 1485,0 ming AQSH dollari (25,1 %), Rossiya Federatsiyasi- 724,0 ming AQSH dollari (12,2 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.